FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 8-noyabr | 310-11-165-Q/24 | Yozyovon tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-moddasiga (Qonun hujjatlari ma’lumotlar milliy ba’zasi, 2020 y., 03.20.642. 1396-son) hamda “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi *(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami*, *2013 y., 18-son, 233-modda, 41-son, 543-modda)* Qonuniga, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 24-may kungi PQ-3001-sonli Qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y. 22-son, 420-modda 37-son, 982-modda,,)* va Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 965-sonli Qaroriga *(O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y.,3-son, 24-modda)* asosan, tuman hududida aholini ish bilan ta’minlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini ajratish, ko‘shimcha ish joylari yaratish hamda ularni muhofaza qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi 1993 yil, 9-son,320-modda)* 6 va 25-moddalariga asosan;

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tuman hududida joylashgan mulkchilik shaklidan qa’tiy nazar ishchilar soni yigirma nafardan ko‘pni tashkil etadigan tashkilot va korxonalarda ishlovchilar soniga nisbatan, o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalariga 13 ta, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 63 ta, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun 9 ta, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun 91 ta, pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 5 ta, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra o‘ziga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar uchun 9 ta, odam savdosidan jabrlanganlar uchun 6 ta, Atrofdagilar uchun xavf tug'dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 2 ta, Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik natijasida jabrlanganlar uchun 5 та ish o‘rinlari bo‘lib, ja’mi 203 ta ish o‘rinlari zahirasini belgilaydi.

2. Ish o‘rinlari band qilib qo‘yiladigan kasblar va lavozimlar: hisobchi, o‘qituvchi, hamshira, shifokor, haydovchi, kompyuter operatori, tikuvchi, huquqshunos, xodimlar ishlari bo‘yicha inspektor, iqtisodchi, menejer, yo‘l ishchisi, chilangar, bog‘bon, farrosh, qorovul.

3. Ko‘rsatib o‘tilgan toifalar uchun ish joylari sanitariya-gigiena normalariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini bemalol bajarishini ta’minlaydigan mehnat sharoitlariga shu jumladan texnika xavfsizligi va mehnatni muhofaza qilish normalariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin.

4. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarga har bir tashkilot bo‘yicha band qilib qo‘yilishi majbur bo‘lgan ish o‘rinlari soni toifasi bo‘yicha 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasa rahbarlariga:

1) Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ko‘rsatilgan ish o‘rinlari tashkil etilishni ta’minlash;

2) yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi hajmida ish o‘rinlari band qilib qo‘yilishini va tayyor bo‘lishini ta’minlasin, ushbu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yil boshlangunga qadar axborot berish;

3) ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini band qilib qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendarь yilning birinchi choragiga kadar ta’minlansin, bu to‘g‘risida tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tugagandan keyin 10 kundan kechikmay axborot berish;

4) tashkilotlar har oyda xisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga yuqorida ko‘satilgan toifadagi shaxslarning ishga joylashtirilishi to‘g‘risida ushbu Nizomga 5-ilovaga muvofiq shakl bo‘yicha axborot taqdim etish;

5) band qilib qo‘yilgan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining tayyorligi to‘g‘risidagi axborotni tashkilot tomonidan taqdim etilmaganligi, amalda ularning tayyor emasligi mehnat organi tomonidan mahalliy davlat hokimiyati organi qarorining bajarilmaganligi deb hisoblansin.

6. Ushbu qaror bajarilmagan taqdirda tashkilotning mansabdor shaxslariga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 21-bandiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilansin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (ro‘yxat raqami №3163, 31 mart 2019 yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rnidan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga - rejadan ortiq qabul qilingan har bir hodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin.

8. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i (U.Nisbatxonov)ga bir hafta muddatda ushbu qarorni 1-ilovasida ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga etkazsin va ushbu qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

9. Belgilansinki, mazkur qaror ommaviy axborot vositalarida rasmiy e’lon qilib, 2025 yilning 1 yanvar kundan boshlab kuchga kiradi.

10. Ushbu qaror qabul qilinishi munosabati bilan tuman hokimining 2023 yil 25 oktyabrdagi 149-11-165-Q/23-son qarori 2024 yil 31 dekabrdan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

11. Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining iqtisodiy ijtimoiy masalalar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Eraliev va tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i U.Nisbatxonovlar zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**